



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– may holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan oyga nisbatan **15 taga** kamaygan.
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **5,2%** ni tashkil qildi.
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **599 taga oshgan**.


2018 yil 1 iyun holatiga ro'yhatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 14879 taga etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 457 taga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,0 % kamaygan hamda ularning soni 70 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 423 ta (3,1 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14097 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Urganch shahrida (23,7 %), Urganch (10,5 %), Xiva (10,0%) tumanlarida kuzatilmogda.

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyun holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Xorazm viloyati	14879	100	14097	100
Urganch sh.	3682	24,8	3341	23,7
Xiva sh.	1312	8,8	1276	9,1
tumanlar:				
Bog'ot	742	5,0	721	5,1
Gurlan	891	6,0	838	5,9
Qo'shko'pir	844	5,7	816	5,8
Urganch	1526	10,3	1486	10,5
Xazorasp	1030	6,9	993	7,1
Xonqa	1097	7,4	1061	7,5
Xiva	1475	9,9	1404	10,0
Shovot	734	4,9	682	4,8
Yangiariq	989	6,6	945	6,7
Yangibozor	557	3,7	534	3,8


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,7 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,3 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda, va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 1,0 % o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,3 % savdoda, 15,8 % sanoatda, 10,3 % qurilishda, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,9 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % axborot va aloqa hamda 29,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-may holatiga 918 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 0,7 % ga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (228 ta), Urganch tumanida (133 ta) va Xiva shahrida (82 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bog'ot (35 ta), Yangibozor (35 ta), Gurlan (45 ta) va Shovot (50 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (241 ta), sanoatda (160 ta), qurilishda (108 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (95 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (10 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (17 ta) va tashish va saqlashda (32 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-may holatiga.	2018 yil yanvar-may holatiga.
Jami:	924	918
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	116	95
Sanoat	255	160
Qurilish	73	108
Savdo	203	241
Tashish va saqlash	35	32
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	78	43
Axborot va aloqa	18	10
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'r-	24	17
Boshqa turlari	122	212

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,9 f.p), axborot va aloqada (-0,1 f.p.) hamda boshqa faoliyat turlarida (-0,1 f.p dan) kamayganligi, buning natijasida savdoda (+0,4 f.p), qurilishda (+0,3 f.p), sanoatda (+0,2 f.p), tashish va saqlashda (+0,2 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,1 f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.06.2018 y.	01.06.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,2	3,1	-0,9
Axborot va aloqa	1,5	1,6	-0,1
Savdo	24,3	23,8	0,4
Qurilish	10,3	10,0	0,3
Sanoat	15,8	15,6	0,2
Tashish va saqlash	3,9	3,7	0,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,6	7,5	0,1
Yashash va ovqatlanish	5,4	5,4	0,0
Boshqa turlari	29,0	29,1	-0,1

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyun holatiga 11280 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3998 ta, oilaviy korxonalar – 976 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6002 ta va boshqalar 304 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 51 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga yoki 8,5 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 43 tasi qo'shma korxonalar, 8 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Urganch shahar 12 ta (23,1 %i), Shovot tumani 11 ta (21,6 %) va Xiva shahar 6 ta (11,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xonqa tumani 1 ta (2,0 %) va Yangibozor tumani 1 ta (2,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Gurlan tumanida esa umuman yoqligi mazkur hududda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyun holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 35 ta (68,6 %), savdoda 9 ta (17,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 ta (5,9 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 ta (2,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 1 ta (2,0 %) va qurilishda 2 ta (3,9 %) . Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda axborot va aloqada umuman yoqligi ma'lum boldi. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11208 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyun holatiga qaraganda 2,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2698 tasi (24,7 %) Urganch shahriga, 1233 tasi (11,0 foizi) Urganch tumani, 1219 tasi (10,8 %) Xiva tumani, hamda 1167 tasi (10,4 foizi) Xiva shahri hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11208 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3399 tasi (30,3 %) – savdoda, 2201 tasi (19,6 %) - sanoatda, 1440 tasi (12,9 %) - qurilishda, 1053 tasi (9,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 751 tasi (6,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 548 tasi (4,9%) - tashish va saqlashda, 239 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 192 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1385 tasi (12,4%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may oylarida 773 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (211 ta), Urganch tumani (113 ta), Xiva shahrida (62 ta), Xonqa tumanida (60 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (22 ta), Bog'ot (35 ta), Shovot (40 ta), Gurlan (42 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (240 ta), sanoatda (160 ta), qurilishda (108 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 94 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (10 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (16 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyun holatiga 1020 tani tashkil etib, ulardan 976 tasi yoki 95,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 32,7 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,6 % yoki 269 tasi sanoat, 26,1 % yoki 255 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,5 % yoki 210 tasi savdo, 10,3 % yoki 100 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8 % yoki 18 tasi qurilish, 1,1 % yoki 11 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 10 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 3 tasi tashish va saqlash, hamda 10,3 % yoki 100 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **D.Kurbanova**
(0362) 224-65-11



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan